



INNOVATSION-INVESTITSION TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJIY TAJRIBALARI VA MILLIY IQTISODIYOTGA TATBIQI

*i.f.d., prof. **Gaibnazarova Zumrat***
Fan va texnologiyalar universiteti
ORCID: 0000-0001-6325-4890
z_gaibnazarova@usat.uz

*PhD **Jamolov Jo'rabek***
Fan va texnologiyalar universiteti
ORCID: 0009-0005-0122-318X
jamolovjorabek39@gmail.com

Fayziyev Shavkat
Fan va texnologiyalar universiteti
ORCID: 0009-0005-9451-5359
dilraboax@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirishning xorijiy tajribalari va ularning milliy iqtisodiyot sharoitida qo'llash imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Hozirgi globallashuv jarayonida innovatsiyalarni joriy etish va investitsiyalarni samarali boshqarish iqtisodiy taraqqiyotning muhim omiliga aylangan. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirishda moliyaviy mexanizmlar, huquqiy bazaning mukammalligi, tadbirkorlarning tashabbuskorligi va ilmiy salohiyatning yuqoriligi muhim o'rin tutadi. Milliy iqtisodiyotda bu tajribalarni tatbiq etish innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, venchur kapital bozorini shakllantirish, xususiy sektorni rag'batlantirish va startaplar faoliyatini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu bilan birga, xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish, mavjud resurslardan samarali foydalanish va milliy innovatsion tizimni takomillashtirish zarur. Mazkur maqolada xorijiy tajribalar tahlil qilinib, ularni o'zbek iqtisodiyoti uchun tatbiq etish mexanizmlari yoritiladi hamda milliy innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy yo'nalishlari asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: innovatsion tadbirkorlik, investitsion tadbirkorlik, innovatsion rivojlanish, investitsion muhit, xorijiy tajriba, milliy iqtisodiyot, davlat siyosati, innovatsion infratuzilma, texnologik rivojlanish, raqobatbardoshlik, investitsion resurslar, iqtisodiy barqarorlik, huquqiy baza, moliyaviy mexanizmlar.

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННО-ИНВЕСТИЦИОННОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА И ВНЕДРЕНИЯ В НАЦИОНАЛЬНУЮ ЭКОНОМИКУ

д.э.н., проф. **Гаибназарова Зумрат**
Университет науки и технологий
PhD Жамалов Джурабек
Университет науки и технологий
Файзиев Шавкат
Университет науки и технологий

Аннотация. В данной статье научно-теоретически освещен зарубежный опыт развития инновационно-инвестиционного предпринимательства и возможности его применения в условиях национальной экономики. В ходе нынешней глобализации внедрение инноваций и эффективное управление инвестициями стали важными факторами экономического прогресса. Зарубежный опыт показывает, что в развитии инновационно-инвестиционного предпринимательства важное место занимают финансовые механизмы, совершенство правовой базы, инициативность предпринимателей, высокий научный потенциал. Внедрение этих практик в национальную экономику позволит развивать инновационную инфраструктуру, формировать рынок венчурного капитала, стимулировать частный сектор, поддерживать деятельность стартапов. При этом необходимо адаптировать зарубежный опыт к национальным условиям, эффективно использовать имеющиеся ресурсы и совершенствовать национальную инновационную систему. В данной статье будет проанализирован зарубежный опыт, освещены механизмы его применения для узбекской экономики и обоснованы теоретические и практические направления развития национального инновационно-инвестиционного предпринимательства.

Ключевые слова: инновационное предпринимательство, инвестиционное предпринимательство, инновационное развитие, инвестиционный климат, зарубежный опыт, национальная экономика, государственная политика, инновационная инфраструктура, технологическое развитие, конкурентоспособность, инвестиционные ресурсы, экономическая стабильность, правовая база, финансовые механизмы.

FOREIGN EXPERIENCE IN DEVELOPING INNOVATIVE INVESTMENT ENTREPRENEURSHIP AND IMPLEMENTING IT INTO THE NATIONAL ECONOMY

DSc, prof. **Gaibnazarova Zumrat**
University of Science and Technologies
PhD Jamolov Jurabek
University of Science and Technologies
Fayziyev Shavkat
University of Science and Technologies

Abstract. In this article, foreign experiments of the development of innovative-investment entrepreneurship and their possibilities of application in the conditions of the national economy are scientifically-theoretically covered. In the current process of globalization, the introduction of innovations and the effective management of investments have become an important factor in economic development. Foreign experience shows that in the development of innovative-investment entrepreneurship, financial mechanisms, the perfection of the legal base, the initiative of entrepreneurs and the high level of scientific potential occupy an important place. The implementation of these experiences in the national economy makes it possible to develop innovative infrastructure, form a venture capital market, stimulate the private sector and support

the activities of startups. At the same time, it is necessary to adapt foreign experience to national conditions, effectively use existing resources and improve the national innovation system. This article will analyze foreign experiences and highlight the mechanisms of their implementation for the Uzbek economy, as well as provide theoretical and practical directions for the development of national innovative and investment entrepreneurship.

Keywords: *innovation entrepreneurship, investment entrepreneurship, innovation development, investment environment, foreign experience, national economy, public policy, innovation infrastructure, technological development, competitiveness, investment resources, economic stability, legal framework, financial mechanisms.*

Kirish.

Bugungi globallashuv jarayonida dunyo mamlakatlarning barqaror rivojlanishi va raqobatbardoshligini ta'minlashda innovatsion-investitsion tadbirkorlik dolzarb ahamiyatga ega. Dunyo miqyosida kechayotgan iqtisodiy jarayonlar shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy yuksalishining asosiy omili sifatida innovatsion yondashuvlar, yangi texnologiyalarni jalb etish va ularni samarali moliyaviy mexanizmlar bilan qo'llab-quvvatlash muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion-investitsion tadbirkorlik milliy iqtisodiyotlarni zamonaviylashtirish, yangi bozorlarni ochish va xalqaro integratsiyani kuchaytirish vositasi sifatida ko'rilmogda. Xorijiy tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish jarayoni bevosita davlat siyosati, ventchur kapital bozori, startap ekotizimlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining faoliyatiga bog'liq holda shakllangan. Masalan, AQShda Silikon vodiysi misolida ko'rish mumkinki, innovatsiyalarni rag'batlantirishda xususiy kapital, universitetlar va texnologik kompaniyalar o'rtasidagi samarali hamkorlik asosiy drayver bo'lgan. Janubiy Koreya va Yaponiyada esa davlatning innovatsion siyosati, ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi orqali iqtisodiyotning yuqori texnologiyalar asosida qayta qurilishi ta'minlangan. Isroil esa kichik hudud va cheklangan resurslarga qaramay, startaplarni qo'llab-quvvatlash, ventchur kapitalni jalb etish va ilmiy salohiyatni iqtisodiyot bilan uyg'unlashtirish orqali "startap millati" sifatida tanilgan. Ushbu tajribalar innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirishda kompleks yondashuv zarurligini namoyon etadi.

Milliy iqtisodiyotda bu kabi tajribalarni tatbiq etish o'z navbatida bir qator imkoniyatlarni yuzaga keltiradi. Avvalo, innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirish orqali ishlab chiqarish samaradorligi ortadi, yangi texnologiyalar keng joriy etiladi, ilmiy-tadqiqot ishlanmalari amaliyotga tatbiq etiladi. Bu esa nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi, balki yangi ish o'rinlari yaratilishiga, eksport salohiyatining oshishiga va raqobatbardosh milliy mahsulotlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, innovatsion-investitsion tadbirkorlik milliy iqtisodiyotda yangi moliyaviy mexanizmlar, masalan, ventchur fondlar, innovatsion grantlar, davlat-xususiy sheriklik loyihalarining rivojlanishini rag'batlantiradi. Innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham ahamiyatlidir. Innovatsiyalar ta'lim, sog'liqni saqlash, transport, energetika va boshqa ko'plab sohalarida xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham innovatsion yondashuvlarning o'rne beqiyosdir. Masalan, elektron hukumat tizimlari, raqamli xizmatlar, elektron tijorat va fintech platformalarining rivojlanishi aholining hayot sifatini yaxshilash bilan birga, iqtisodiy samaradorlikni ham oshirmogda. Bunday tajribalarni xorijiy mamlakatlar misolida ko'rish mumkin va ularni milliy sharoitga moslashtirish iqtisodiyotimizda katta natijalar berishi tabiiydir.

Bugungi kunda O'zbekiston ham innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo'lida muhim qadamlar tashlamogda. Davlat tomonidan yaratilayotgan qulay investitsion muhit, ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash, texnoparklar va innovatsion klasterlarni rivojlantirish bo'yicha qabul qilinayotgan qarorlar bu yo'nalishdagi strategik yondashuvlardan dalolat beradi. Shu bilan birga, xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va ularni

milliy sharoitga moslashtirish zaruriyati kundan-kunga ortib bormoqda. Chunki milliy iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlari va xalqaro raqobatda munosib o'rin egallash darajasi innovatsion-investitsion tadbirkorlikning qay darajada samarali rivojlanganiga bevosita bog'liqdir. Xorijiy tajribalarni milliy iqtisodiyotga tatbiq etishda bir qator masalalarga e'tibor qaratish zarur. Avvalo, xorijda shakllangan mexanizmlar va institutlarni to'liq ko'chirib olish emas, balki ularni milliy sharoit, resurs imkoniyatlari, huquqiy baza va iqtisodiy siyosatga moslashtirish muhimdir.

Bu borada O'zbekiston uchun eng maqbul yo'nalishlar sifatida startaplarni qo'llab-quvvatlash, venchur kapital bozorini rivojlantirish, innovatsion ekotizim yaratish, ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini ishlab chiqarish bilan integratsiyalash kabi ustuvor vazifalar belgilanmoqda. Shuningdek, xorijiy davlatlar bilan hamkorlik qilish orqali texnologik transforni amalga oshirish, xalqaro investitsiyalarni jalb etish va qo'shma innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlari ham kengaymoqda. Innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi nazariy jihatdan ham chuqur o'rganishni talab etadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishning yangi bosqichiga o'tishda an'anaviy ishlab chiqarish omillari yetarli emas, balki innovatsion faoliyatni moliyaviy va institutsional jihatdan qo'llab-quvvatlash zarur. Shu bois, innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat, biznes va ilm-fan o'rtasidagi uchburchak hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bu hamkorlik ilmiy salohiyatni amaliyotga tatbiq etish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Adabiyotlar sharhi.

Innovatsion-investitsion tadbirkorlik masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilayotgan yo'nalishlardan biridir. G'arb olimlari asarlarida innovatsion-investitsion tadbirkorlik iqtisodiy o'sishning yangi bosqichi sifatida talqin qilinadi. Jumladan, Shumpeter (1934) o'zining innovatsiyalar nazariyasida tadbirkorlikning iqtisodiy jarayonlarda "yangilik kirituvchi kuch" ekanligini asoslab bergan. Unga ko'ra, yangi texnologiyalar, mahsulotlar va xizmatlar iqtisodiy tizimda yangilanishni ta'minlab, raqobat muhitini kuchaytiradi. Keyingi davrlarda Drucker (1985), Porter (1985) kabi olimlar ham innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy asoslarini keng yoritib, uni milliy iqtisodiyotda samaradorlikni oshirishning muhim mexanizmi sifatida ko'rsatib o'tganlar, Yevropa ilmiy maktabi vakillari innovatsion-investitsion tadbirkorlikni hududiy rivojlanish va raqobatbardoshlik bilan bog'liq holda o'rganishga alohida e'tibor qaratgan. Ularning izlanishlarida innovatsion klasterlar, texnoparklar, ilmiy markazlar va venchur kapitalning ahamiyati ta'kidlanadi. Masalan, Germaniya tajribasi asosida olib borilgan tadqiqotlarda davlat tomonidan innovatsion ekotizim yaratish, ilm-fan va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, yangi g'oyalarni amaliyotga tatbiq etishda universitetlarning o'rni alohida ko'rsatib o'tilgan (Porter, 1985). Bu yondashuvlar milliy iqtisodiyotda innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirishda ham dolzarb hisoblanadi.

Yevropa ilmiy maktabi vakillaridan Kuk, Haydenrayh va Bratsik (2004) "Hududiy innovatsion tizimlar: globalizatsiyalashgan dunyoda boshqaruvning roli" asarida innovatsion klasterlar va hududiy tizimlarning rivojlanishdagi o'rni, davlat, xususiy sektor va ilmiy muassasalar hamkorligi muhimligi ko'rsatildi.

Etzkovits va Leydesdorff (1997) "Uchlik spiral, ya'ni universitet-sanoat-davlat innovatsiyalari amaliyotda" kitobida universitetlarning ta'lim, tadqiqot va yangi texnologiyalarni ishlab chiqishdagi roli ta'kidlandi.

Audretsch (2001) "Innovatsiyalar va iqtisodiy o'sish" asarida innovatsiyalar va investitsiyalar o'rtasidagi bog'liqlik hamda tadbirkorlikning iqtisodiy o'sishdagi roli tahlil qilindi. R.Sternberg va O.Arndt Yevropa firmalarining innovatsion faoliyatini o'rganib, korxonalarning innovatsion xatti-harakatlari hududiy muhit va infratuzilmaga bog'liq ekanini ko'rsatdilar (Татаркин и др., 2018). Shu bilan birga, ushbu olimlarning izlanishlari

innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat siyosati, hududiy tizimlar, ilmiy muassasalar va xususiy sektor o'rtasidagi tizimli hamkorlikning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi.

Mahalliy olimlarimiz ham innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratganlar. Jumladan, Mirzayev (2019) va Qodirov (2022) innovatsion klasterlar va texnoparklar faoliyati orqali investitsion oqimlarni rag'batlantirish, ilmiy muassasalar bilan xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaganlar.

Bektemirov va Turayev (2021) tadbirkorlik subyektlarining innovatsion salohiyatini oshirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish jarayonlarini o'rganib, hududiy tizimlar va davlat siyosatining ahamiyatini ko'rsatganlar. Ularning izlanishlari innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirishda tizimli yondashuv, davlat siyosati, hududiy innovatsion tizimlar, ilmiy muassasalar va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlikning hal qiluvchi ahamiyatini tasdiqlaydi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion-investitsion tadbirkorlik masalasi turli mamlakatlarda turlicha talqin qilinadi, lekin umumiy jihatlar sifatida bir necha omillar ajralib turadi. Ular qatoriga davlatning qo'llab-quvvatlashi, ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish, moliyaviy mexanizmlarning samaradorligi, intellektual mulkni himoya qilish, startaplarni rag'batlantirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kiradi. Shu bilan birga, adabiyotlarda xorijiy tajribani milliy sharoitga to'g'ri tatbiq etish zaruriyati alohida ta'kidlanadi. Zero, bir mamlakatda samarali bo'lgan mexanizm boshqasida to'liq natija bermasligi mumkin, shuning uchun milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari hisobga olinishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonlarini xorijiy tajribalar asosida o'rganish va ularni milliy iqtisodiyotga tatbiq etish imkoniyatlarini tahlil qilish uchun kompleks yondashuv qo'llanildi. Metodologiya asosan tizimli tahlil tamoyiliga asoslanib, iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillarni birgalikda o'rganishga qaratildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida rivojlangan davlatlarda innovatsion-investitsion faoliyatni rag'batlantirish mexanizmlari milliy sharoit bilan taqqoslanib, samarali yo'nalishlar ajratib olindi. Statistik tahlil usuli orqali O'zbekiston iqtisodiyotida innovatsion-investitsion faoliyat ko'rsatkichlari, investitsiya oqimlari, startaplarni qo'llab-quvvatlash darajasi hamda ilmiy-tadqiqot ishlari uchun yo'naltirilayotgan mablag'lar o'rganildi. Ushbu ko'rsatkichlarni xalqaro amaliyotdagi ma'lumotlar bilan solishtirish milliy iqtisodiyotdagi ustuvorliklarni aniqlash imkonini berdi. Tadqiqotda shuningdek ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilib, xorijiy tajribalar umumlashtirildi va ular asosida milliy sharoitga mos konseptual takliflar ishlab chiqildi. Metodologiyaning nazariy manbalari sifatida xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari hamda hukumat hujjatlari tahlil qilindi. Shu asosda innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Innovatsion-investitsion tadbirkorlik bugungi global iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayverlaridan biri bo'lib, mamlakatlarning raqobatbardoshligini ta'minlashda hal qiluvchi o'rin tutadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsion g'oyalarni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash va ularga qulay muhit yaratish orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishiga erishish mumkin. Ayniqsa, rivojlangan davlatlarda tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish va xususiy sektorni keng jalb qilish mexanizmlari yuqori darajada yo'lga qo'yilgan. Shu sababli, xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va uni milliy iqtisodiyotga moslashtirish O'zbekiston uchun dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Masalan, AQShda innovatsion tadbirkorlik venchur kapital, biznes-inkubatorlar va texnoparklar orqali qo'llab-quvvatlanadi. Yirik texnologik kompaniyalar bilan bir qatorda kichik startaplar ham davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanib, ular uchun qulay huquqiy va moliyaviy sharoitlar yaratilgan. Yevropa Ittifoqida esa davlatning bevosita aralashuvi innovatsion ekotizimni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi, ya'ni maxsus grantlar, subsidiyalari va soliq imtiyozlari orqali tadbirkorlik faoliyati rag'batlantiriladi. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida, xususan Janubiy Koreya va Singapurda esa davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlik shakllangan bo'lib, ular ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasiga alohida e'tibor qaratishadi. Bundan tashqari, innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirishda ta'lim va ilmiy tadqiqotlarning o'rnini alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, Yaponiyada universitetlar va ilmiy markazlar bilan biznes sektori o'rtasida hamkorlik yuqori darajada bo'lib, ilmiy natijalar tezkorlik bilan tijoratlashtiriladi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining yuqori texnologiyalarga asoslangan bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, Xitoyda so'nggi yillarda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar natijasida innovatsion tadbirkorlik uchun ulkan imkoniyatlar yaratildi. Hukumatning uzoq muddatli strategik dasturlari natijasida bu mamlakat tezkorlik bilan dunyodagi eng yirik startap markazlaridan biriga aylandi. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston uchun xorijiy tajribalarni o'rganish va ulardan milliy sharoitga mos keladigan jihatlarni tanlab olish nihoyatda muhimdir. Chunki mamlakatimizda innovatsion-investitsion tadbirkorlik hali yangi bosqichda shakllanayotgan bo'lib, bu yo'nalishda samarali tashkiliy, huquqiy va moliyaviy mexanizmlarni joriy etish zarur. Xorijiy tajribalarni jadval shaklida ko'rib chiqish bizga ularning afzalliklarini, milliy iqtisodiyotga tatbiq etish imkoniyatlarini va muammoli jihatlarni yanada aniqroq tahlil qilishga yordam beradi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, xorijiy mamlakatlarda innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirish tajribalari tahlilini quyidagi jadvalda keltirdik (1-jadval):

1-jadval

Xorijiy mamlakatlarda innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirish tajribalari

Davlat	Asosiy yondashuvlar	Qo'llanilayotgan mexanizmlar	Natijalar
AQSh	Bozor mexanizmlariga asoslangan rivojlanish	Venchur kapital, biznes-inkubatorlar, texnoparklar, startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturlari	IT sektorda yetakchilik, innovatsion kompaniyalar sonining tez o'sishi
Germaniya	Davlat va xususiy sektor hamkorligi	Grantlar, soliq imtiyozlari, ilmiy-tadqiqot institutlarini qo'llab-quvvatlash	Sanoatda innovatsion texnologiyalar keng qo'llanilishi
Yaponiya	Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi	Universitet-biznes hamkorligi, davlat subsidiyalari, texnologik markazlar	Yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportining ortishi
Janubiy Koreya	Strategik davlat dasturlari	Innovatsion klasterlar, startaplar uchun kreditlar, ilmiy grantlar	Elektronika va avtomobilsozlikda global yetakchilik
Xitoy	Keng ko'lamli davlat qo'llab-quvvatlashi	Innovatsion zonalar, soliq imtiyozlari, davlat investitsiyalari	Startaplar sonining tez o'sishi, yangi texnologiyalar bozorini shakllantirish
Singapur	Kichik davlat uchun global integratsiya siyosati	Xalqaro investorlarni jalb qilish, venchur fondlar, texnoparklar	Mintaqaviy innovatsion markazga aylanish, startaplar uchun qulay muhit

Manba: O'rganib chiqilgan manbalar asosida muallif tomonidan tayyorandi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirish har bir mamlakatda o'ziga xos yondashuvlarga asoslangan bo'lsa-da, ular orasida umumiyliklar ham mavjud. Masalan, AQSh tajribasida bozor mexanizmlarining ustuvorligi seziladi. Venchur kapitalning keng qo'llanilishi startaplar uchun eng muhim moliyaviy manbalardan biri hisoblanadi. Bu mamlakatda davlat ko'proq tartibga soluvchi rolni bajaradi, biroq biznes-inkubatorlar va texnoparklar orqali xususiy sektor faoliyatini rag'batlantiradi. Natijada, IT va yuqori texnologiyalar sohasida Amerika yetakchi o'rinda turadi.

Germaniyada esa davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik asosiy tamoyil bo'lib xizmat qiladi. Hukumat ilmiy-tadqiqot institutlariga mablag' ajratadi, soliq imtiyozlari taqdim etadi va shu orqali sanoat korxonalarini innovatsion faoliyatga jalb qiladi. Natijada Germaniya sanoat mahsulotlarida yuqori texnologiyalar ulushi yuqori bo'lib, mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlaydi. Yaponiyada ilm-fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi ustuvor o'rin tutadi. Universitetlar bilan korxonalar hamkorligi natijasida yangi g'oyalar tezkorlik bilan tijoratlashtiriladi. Bu esa Yaponiya iqtisodiyotini yuqori texnologiyali mahsulotlar eksportiga yo'naltiradi. Janubiy Koreya ham shu yo'nalishda katta yutuqlarga erishgan bo'lib, hukumatning uzoq muddatli strategik dasturlari natijasida elektronika, avtomobilsozlik va boshqa texnologik sohalarda dunyoda yetakchilikni qo'lga kiritdi. Xitoy tajribasi ham diqqatga sazovor. Mamlakat keng ko'lamli davlat qo'llab-quvvatlashi orqali innovatsion zonalar va texnoparklar tashkil etdi, startaplar uchun soliq imtiyozlari joriy qildi. Shu tufayli Xitoy qisqa muddat ichida dunyoning yirik innovatsion markazlaridan biriga aylandi. Singapur esa kichik hududiy resurslarga ega bo'lishiga qaramay, xalqaro investorlarni jalb qilish va global integratsiyaga qaratilgan siyosati tufayli mintaqaviy innovatsion markazga aylandi. Umuman olganda, yuqoridagi davlatlar tajribasi innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirishda bir nechta umumiy jihatlarni ko'rsatadi. Bu jihatlarga davlatning faol qo'llab-quvvatlashi, moliyaviy mexanizmlarning xilma-xilligi, ilm-fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi hamda startaplar uchun qulay muhit yaratish kabilar kiradi. Shu bilan birga, har bir mamlakat o'zining iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sharoitidan kelib chiqib o'ziga xos yondashuvlarni shakllantirgan. Mamlakatimiz uchun bu tajribalarni qo'llash yaxshi natijalar berishi mumkin. Xususan, startaplarni qo'llab-quvvatlashda AQSh modelidan, sanoatda innovatsion texnologiyalarni joriy etishda Germaniya va Yaponiyadan, davlat strategik dasturlarini ishlab chiqishda Janubiy Koreyadan, keng ko'lamli qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini tashkil etishda Xitoydan, xalqaro investitsiyalarni jalb etishda esa Singapurdan samarali jihatlarni o'rganish mumkin. Shu orqali milliy iqtisodiyotda innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yanada samarali mexanizmlar yaratilishi mumkin.

Milliy iqtisodiyotda innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirishning xorijiy tajribalarini tatbiq etish orqali ko'plab ijobiy natijalarga erishish mumkin. Biroq bunda bevosita ko'chirish emas, balki milliy sharoit va xususiyatlardan kelib chiqib, moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy tajribalardan foydalanish yo'nalishlari, avvalo, huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish, moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish, innovatsion infratuzilmani mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish, tadbirkorlik madaniyatini rivojlantirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va bozor infratuzilmasini modernizatsiya qilish bilan bog'liq. Shu bilan birga, xorijiy tajribalarni tatbiq etish jarayonida davlatning faol ishtiroki va xususiy sektorning tashabbuskorligi muvofiqlashtirilishi lozim. Innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirishning xorijiy tajribalarini milliy iqtisodiyotga tatbiq etish yo'nalishlarini quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin (2-jadval):

Ushbu jadvaldan ko'rinib turibdiki, innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy tajribalarni milliy iqtisodiyotga tatbiq etish ko'plab yo'nalishlarni qamrab oladi. Birinchi navbatda, huquqiy-me'yoriy bazani rivojlantirish zarur. AQSh va Yevropa tajribasida startaplar uchun qulay qonunchilik muhitining yaratilgani ularning tezkor rivojlanishiga zamin yaratgan. Shu jihatdan, milliy iqtisodiyotda ham maxsus qonunlar ishlab chiqish va litsenziyalash jarayonini soddalashtirish dolzarbdir.

Innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishlari

Yo'nalish	Xorijiy tajriba	Milliy iqtisodiyotga tatbiq etish imkoniyati
Huquqiy-me'yoriy bazani rivojlantirish	AQSh va Yevropa davlatlarida startaplar uchun qulay qonunchilik	Maxsus qonunlar ishlab chiqish, litsenziyalash jarayonini soddalashtirish
Moliyaviy qo'llab-quvvatlash	AQShda venchur fondlari, Yaponiyada davlat grantlari	Venchur kapitalini rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish
Innovatsion infratuzilma	Janubiy Koreyada texnopark va inkubatorlar	Texnoparklar, ilmiy markazlar va innovatsion inkubatorlarni tashkil etish
Kadrlar salohiyati	Germaniyada "dual ta'lim" modeli	O'quv dasturlarini modernizatsiya qilish, amaliy ko'nikmalarga e'tibor qaratish
Tadbirkorlik madaniyati	Isroilda innovatsion startap ekotizimi	Yoshlar uchun grantlar, akseleratsiya dasturlari va startap musobaqalarini yo'lga qo'yish
Xalqaro hamkorlik	Yevropa Ittifoqida qo'shma ilmiy loyihalar	Xorijiy universitetlar, fondlar va kompaniyalar bilan hamkorlikni kuchaytirish
Bozor infratuzilmasini modernizatsiya qilish	Xitoyda global marketing va logistika tizimi	Ichki va tashqi bozorlarda innovatsion mahsulotlarni ilgari surish mexanizmlarini ishlab chiqish

Manba: O'rganib chiqilgan manbalar asosida muallif tomonidan tayyorandi.

Ikkinchi muhim yo'nalish moliyaviy qo'llab-quvvatlashdir. AQSh va Yaponiyada venchur fondlari hamda davlat grantlari katta rol o'ynaydi. Milliy sharoitda ham venchur kapitalini shakllantirish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish katta imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, innovatsion infratuzilmani mustahkamlash ham muhim. Janubiy Koreya tajribasida texnoparklar va inkubatorlar ilmiy tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etishda samarali mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Kadrlar salohiyati ham o'z o'rniga ega. Germaniya tajribasidagi "dual ta'lim" modeli yoshlarni nafaqat nazariy, balki amaliy bilimlar bilan ham qurollantirishga yordam beradi. Bu milliy ta'lim tizimi uchun ham dolzarb. Tadbirkorlik madaniyati sohasida esa Isroil tajribasi e'tiborga loyiq. Yoshlarni innovatsiyaga jalb qilish, startap musobaqalari va grantlarni yo'lga qo'yish milliy iqtisodiyot uchun ham foydali bo'ladi. Xalqaro hamkorlik va bozor infratuzilmasini modernizatsiya qilish ham muhim yo'nalishlardandir. Yevropa Ittifoqidagi qo'shma ilmiy loyihalar va Xitoydagi marketing-logistika tizimi innovatsion mahsulotlarning jahon bozorida muvaffaqiyat qozonishida katta rol o'ynaydi. Umuman olganda, mazkur yo'nalishlarning uyg'un holda amalga oshirilishi milliy innovatsion tizimning samaradorligini oshiradi va iqtisodiy rivojlanishga yangi turtki beradi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirishning xorijiy tajribalari va ularni milliy iqtisodiyotga tatbiq etish masalasi zamonaviy iqtisodiy rivojlanish jarayonida ustuvor yo'nalishlardan biri hisobladi. Mazkur maqolada AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Xitoy kabi mamlakatlarning ilg'or tajribalari o'rganilib, ularning asosiy mexanizmlari tahlil qilindi. Shuningdek, milliy sharoitda ularni moslashtirish imkoniyatlari va iqtisodiy samara berishi mumkin bo'lgan yo'nalishlar yoritib berildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xorijiy tajribalarni oqilona qo'llash orqali milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, barqarorligi va innovatsion salohiyatini sezilarli darajada oshirish mumkin.

Mavzuga oid o'rganilgan nazariy va amaliy qarashlar asosida quyidagi takliflarni ilgari surdik:

➤ *Huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish.* Innovatsion va investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun qulay qonunchilik muhiti yaratish, startaplar va kichik biznes uchun alohida imtiyozlar joriy etilga maqsadga muvofiq bo'ladi;

➤ *Moliyaviy mexanizmlarni kengaytirish.* Venchur kapital, davlat grantlari va xususiy investitsiya fondlarini shakllantirish, davlat-xususiy sheriklik asosida yangi moliyaviy mexanizmlarni joriy etish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin;

➤ *Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish.* Texnoparklar, inkubatorlar va akseleratorlarni kengaytirish, ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar bilan hamkorlikda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash kerak;

➤ *Kadrlar salohiyatini oshirish.* Germaniyaning "dual ta'lim" modeli misolida, ta'lim tizimini amaliyotga yaqinlashtirish, yoshlarni ilmiy-tadqiqot va startap faoliyatiga jalb etish talab etish orqali kadrlar salohiyati oshadi;

➤ *Tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish.* Yoshlar orasida startaplar uchun grantlar, tanlovlar va akseleratsiya dasturlarini joriy qilish orqali innovatsion muhitni rivojlantirish mumkin;

➤ *Xalqaro hamkorlikni kengaytirish.* Yevropa Ittifoqi, OECD, WIPO va boshqa xalqaro tashkilotlar tajribasidan foydalanish, qo'shma ilmiy va investitsion loyihalarda ishtirok etish samarali bo'ladi;

➤ *Bozor infratuzilmasini modernizatsiya qilish.* Ichki va tashqi bozorlar uchun innovatsion mahsulotlarni ilgari surish, logistika va marketing tizimini takomillashtirish natijasida innovatsion-investitsion tadbirkorlikni yanada rivojlanadi.

Umumiy qilib aytganda, xorijiy tajribalarni milliy iqtisodiyotga tatbiq etish orqali innovatsion-investitsion tadbirkorlikning rivojlanishi nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratadi, balki iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlaydi. Shu bois, mamlakatimizda innovatsion-investitsion faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish va xalqaro amaliyotni milliy sharoitga moslashtirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Adabiyotlar/Jumepamypa/Reference:

Bektemirov Sh., Turayev N. (2021) *Tadbirkorlik subyektlarining innovatsion salohiyatini oshirish.* – T.: Fan va texnologiya, -198 s.

Cooke P., Heidenreich, M., Braczyk, H.-J. (2004) *Regional Innovation Systems: The Role of Governance in a Globalized World. 2nd Edition.* London: Routledge, -512 p.

Drucker P.F. (1985) *Innovation and Entrepreneurship.* New York: Harper & Row, -277 p.

Etzkowitz H., Leydesdorff L. (1997) *The Triple Helix – University-Industry-Government Innovation in Action.* London: Routledge, -164 p.

Farmon (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-sonli Farmoni.*

Farmon (2023) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni.*

Mirzayev Sh. (2019) *Innovatsion-investitsion tadbirkorlikni rivojlantirish strategiyalari: mahalliy va xalqaro tajribalar.* // Iqtisodiyot va boshqaruv, №2. S. 45-52.

Mirzayev Sh., Qodirov F. (2020) *Innovatsion klasterlar va hududiy rivojlanish: ilmiy-tadqiqotlar va amaliyot.* – T.: Iqtisodiyot va innovatsiyalar nashriyoti, -216 s.

Porter M.E. (1985) *Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance.* New York: Free Press, -557 p.

Qaror (2022) *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-307-sonli qarori.*

Qodirov F., Bektemirov Sh. (2022) *Innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishning hududiy va milliy jihatlari.* // *Respublika iqtisodiyoti*, №4. S. 33-41.

Schumpeter J.A. (1934) *The Theory of Economic Development.* Cambridge, MA: Harvard University Press, -255 p.

Sternberg R., Arndt O. (2001) *The Firm or the Region: What Determines the Innovation Behavior of European Firms?* // *Economic Geography*. Vol. 77, No. 4. P. 364–382.

Татаркин В.И., Юдина Е.А., Горбунов А.Г. (2018) *Инновационная активность и инвестиционные потоки: региональный и национальный аспекты* // *Экономика и инновации*. №5. С. 34-42.